



XALQ DEPUTATLARI DANG'ARA TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 25-yanvar

VII-4-3-11-155-K/25

Dang'ara tumani

Dang'ara tuman porokurori, 2-sektor rahbari A.Boboxonovning 2-sektor hududida 2024 yil 4-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sektor faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-sonli qaroriga asosan sektorni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ishlarini tashkil etish va faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida, 2024-yilning 4-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hisoboti yuzasidan Dang'ara tuman porokurori, 2-sektor rahbari A.Boboxonovning hisobotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dang'ara tuman porokurori, 2-sektor rahbari A.Boboxonov tomonidan aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari"ni namunali yuritish borasida joriy yilning 4-chorak davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Dang'ara tuman porokurori, 2-sektor rahbari (A.Boboxonov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (I.Usmonov), tuman Kengashi deputatlari, mahalla fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda;
 - "Yo'l xaritasida" belgilab qo'yilgan vazifalar ijrosini o'z muddatlarida sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;
 - tumanda ijtimoiy himoyaga muxtoj kambag'al oilalarni tadbirkorlikka jalb etish va ularni bandligini ta'minlash ishlariga alohida e'tibor qaratish orqali kambag'allik darajasini kamaytirish hamda bu bo'yicha muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish
 - sektor kesimida "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni har bir toifa bo'yicha aniqlangan muammolarini ijobiy hal etish va ularni bandligini ta'minlash

ishlariga alohida e'tibor qaratish orqali ularni "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" dan chiqarish choralarini ko'rish;

- sektor rahbari va tegishli mas'ullar tomonidan o'tkaziladigan sayyor qabullar va uchrashuvlarda aniqlangan muammolar va aholi tomonidan ilgari suriladigan takliflarni ijobiiy hal etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (U.Usmonov)ga aholi bandligini ta'minlash va daromadini keskin kamayishining oldini olish, muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (R.Akramov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Dadamirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH